



“AL-MUFASSAL FI-N-NAHV” KITOBI MANBA BO‘LIB XIZMAT QILGAN ENG MASHHUR ASARLAR

*G‘aniyev Akmaljon Adxamjon o‘g‘li
Hadis ilmi maktabi “Islom ilmlari”
kafedrasi mudiri*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariyning “Al-Mufassal fi-n-nahv” asarining o‘zidan keyin yozilgan eng mashhur asarlar, unga yozilgan sharhlar, mashhur olimlarning asarga bo‘lgan munosabati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Andalusiya, sharh, muxtasar, nazm, ibn Ya’ish, ibn Hojib, Brokkelmen, lingvestika, tilshunoslik.

Mahmud Zamaxshariy “Al-Mufassal fi-n-nahv” kitobi dunyo yuzini ko‘rgandan beri uni ulamolar katta e’tibor bilan o‘rganib, boshqalarga ham o‘rgatib kelishgan. Bu asarni o‘rganishga, hatto, sultonlar, voliylar ham qattiq ahamiyat berishgan. Asar davlat miqyosida o‘rganilishi, odamlar tomonidan unga katta rag‘bat qaratilishiga asosiy sababchilaridan biri Shom shahrining sultoni Iso ibn Muhammad Abu Bakr ibn Ayyubdir. Avvalo, Sultonning o‘zi bu asarni o‘rganib, unga ishtiyoqmand bo‘lgach, uni boshqalarga ham o‘rgatish va bu asar keng tarqalishi uchun, uni yod olgan odamga 100 dinor va bosh oyoq sarpo bilan mukofotlash kabi katta ishlarni amalga oshirdi. Shundan so‘ng odamlarning kitobga bo‘lgan rag‘bati yanada oshadi va uni yodlashga qattiq kirishadilar. Bu esa olimlarning yanada bu kitob ustida ishlashga undab, ular kitobni tushunish osonlashtirish uchun sharhlar, hoshiyalar yozishadi. Uni yodlashni osonlashtirish maqsadida unga manzumalar bitishadi. O‘scha davrning o‘zidayoq, yod olgan va nazmga solganlardan tashqari Shom ahli va unga safar qilgan 25 dan ziyod nahv olimlari bu kitobga sharh bitganlar.

Shu o‘rinda “al-Mufassal” kitobining eng mashhur, bugungi kunimizgacha keng o‘rganib kelinayotgan va bugungi kunda ham katta ahamiyat qaratilib, qayta-qayta nashr qilinayotgan sharhlariga to‘xtalib o‘tsak.

1. Ibn Ya’ishning “Sharhu-l-Mufassal li-z-Zamaxshariy” (Zamaxshariyning “al-Mufassal” asari sharhi) asari.

Shorihning to‘liq ismi Abulbaqo Ya’ish ibn Ali ibn Ya’ish. Asli Mavsiliy, lekin tug‘ilgan va yashab ijod qilgan joyi Halab bo‘lgan. Ibn Soig‘ nomi bilan mashhur bo‘lgan. Tilshunos olim bo‘lgan. Hijriy 553-yil ramozon oyining 3-kunida tavallud topgan. Yoshlik paytlarida Abu Barakot Abdurrahmon ibn Muhammadning dars halqasida ishtirok etish maqsadida Bog‘dodga yo‘l oladi. Iroqning Mavsil (Mosul) shahriga yetib borganida uning vafot etgani xabari yetib keladi. Shundan so‘ng Mavilda qolib, uzoq muddat hadisdan ta’lim oladi. So‘ng Halabga qaytib kelib,



Umrini dars berishga bag‘ishlaydi. Uning ilmidan juda ko‘pchilik foyda oladi. Hatto o‘sha paytda Halabda bo‘lgan rahbarlar ham unga shogird bo‘ladilar. U hijriy 643-yil jumadul avval oyining 25-kuni halabda vafot etadi. Ibrohim alayhissalomga nisbat berilgan joyga dafn qilinadi. Uning “al-Mufassal” asariga yozgan sharhi ulamolar orasida mashhur bo‘lishiga sabab, muallif o‘z asarini ilmi g‘oyatda pishib yetilgan, ulamolarning nahv va sarf to‘g‘risidagi ilmlarini chuqur o‘rgangan va barcha nahv mazhablarining qarashlaridan boxabar bo‘lgan paytda, 70-yoshida yozishga kirishganidadir.

Olim kitobning muqaddimasida nima uchun nahv kitoblari orasidan aynan “al-Mufassal”ga sharh yozganiga to‘xtalib, shunday deydi:

“Alloma Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxsharining asarlaridan biri bo‘lmish “al-Mufassal” deb nomlangan bu kitobning qadri ulug‘, zikrda tengsiz bo‘lgach, uning fasllari bu ilmning asosiy qoidalarini jamlab, lafzi qisqa va o‘quvchiga o‘rganish oson bo‘lgan-u, lekin ba’zi nuqsonlari: iborasi qiyin va chigal, turli xil ma’nolarni anglatuvchi – mujmal, tushunishga oson-u, lekin dalildan xoli – muhmal bo‘lgach, uning chigalliklarini yechadigan, noaniq joylarini ochib beradigan va barcha hukmlarini hujjatlari va sabablarini o‘zida mujassam qilgan bir sharh yozish borasida Allah taologa istixora qildim. Lekin men bu kitob (sharhim)da keltirilganlardan kamroq yozgani sababli muallif kamchilikka yo‘l qo‘ydi degan davoni qilmayman. Ma’lumki, iyoz (qisqa yozish) balog‘atiga qodir bo‘lgan, itnob (foydali cho‘zish, uzoq gapirish)ga ham qodirdir.”¹

Ibn Ya’ish rohimahulloh o‘zi kitobning muqaddimasida aytganidek, kitobning har bir faslini, har bir iborasini boshidan oxirigacha batafsil yoritib, sharhlab chiqqan. Bu sharhni o‘qigan odam avvalgi sahifalaridanoq, u kishi huddi Mahmud Zamaxshariydek Basra maktabining fikrlarini qo‘llab quvvatlaganiga guvoh bo‘ladi. ko‘plab masalalarda Sibavayhning so‘zlarini dalil qilib keltiradi. Lekin shunday bo‘lsada, o‘rnii kelganda kufaliklarining ham fikrlarini ustun qo‘ygan o‘rinlar mavjud.

Ibn Xallikon bu asarni: “Sharhlarning ichida bunga o‘xshashi yo‘q.” – deb ta’riflaydi.²

Haqiqatan ham bu asar “al-Mufassal”ning sharhlarining ichida tengsizi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu asar hozirham ulamolar tomonidan keng foydalanib kelinmoqda. Bu asar Livanning Bayrut shahrida, Doru-l-kutubi-l-ilmiyya nashriyoti tominidan Imil Bade’ Ya’qub tahqiqi ostida 2001-yil nashr qilingan.

¹ Abulbaqo Ya’ish ibn Ya’ish. Sharhu-l-Mufassal li-z-Zamaxshariy. Imil Bade’ Ya’qub tahqiqi ostida. 1-jild. – Bayrut.: Doru-l-kutubu-l-ilmiyya, 2001.– B. 39.

² Ibn Xallikon. Vafayatu-l-A’yon va abnau abnau-z-zamon. 7-jild. – Bayrut.: Dorus Sodir, 2003. – B. 52.

Bu asarning bir nusxasi “Salim Oga” 1168-raqam ostida, “Xudobaxsh/Benkipur”da 20/2025-2026-raqami ostida va Qohirada 2/136-raqam ostida saqlanadi.³

2. Sharhu-l-Mufassal fi son’ati-l-e’rob al-mavsum bi-t-Taxmir (Taxmir deb ataluvchi arab tili grammatikasiga oid mufassal asar sharhi). Bu kitobning muallifi Sodrul afozil Qosim ibn Husayn Xorazmiy (1140-1220) bo‘lib, u kishi haqida bizgacha juda oz ma’lumot yetib kelgan. U kishining tarjimai hollari to‘g‘risida u kishi bilan asrdosh bo‘lgan mashhur sayyoh, geograf va tarixchi Yoqut Hamaviyning (1179-1229) “Mu’jamul udabo”⁴ (Adiblar lug‘ati) nomli asarida ko‘proq ma’lumotlar topishimiz mumkin. Bu kishi Sodrul Afozil Xorazmiyning tarixini o‘rganishda asosiy manba hisoblanadi. Yoqut Hamaviy Xorazmiy bilan uning uyida ko‘rishganliklari haqida ma’lumotlar mavjud.

Xorazmiyning tug‘ulgan sanasi haqida Yoqut quydagilarni aytib o‘tadi: “Men undan qachon tug‘ulgani haqida so‘raganimda, u “Men hijriy 555-yil 9-shabonning kechasida tug‘ulganman.” – dedi.”

U kishi hijriy 617-yil 12-robiul avval kuni Tatar (Mo‘g‘ul)larning Xorazmga hujmi paytida, shahid holida vafot etgan.

U kishining nahv, balog‘at, adab va lug‘at ilmlariga oid 20 dan ziyod asarlari mavjud. Xorazmiy bulardan boshqa fanlar borasida kitob yozmaganlar. Lekin yozgan asarlarining hammasi ham bizlarga yetib kelmagan.

Yoqut Hamaviy Xorazmiy haqida ma’lumot berayotib uning “al-Mufassal” sharhi bo‘lmish “Taxmir” kitobi haqida ma’lumotlarni ham bayon qiladi. Lekin uning qancha hajmdan iborat ekanligiga to‘xtalmaydi. Lekin boshqa asarlarda bu kitob 3 juzdan iborat ekanligini bilib olishimiz mumkin. lekin “taxmir” kitobining bizlargacha yetib kelgan yetib kelgan nusxalaridan u muallif tomonidan juzlanmaganini bilib olamiz. Demak, kitob xattotlar tomonidan juzlarga bo‘lingan. “Tazmir” kitobini tahqiq qilib nashrغا tayyorlagan olim tomonidan uning faqat uch nusxasini topganligini aytib o‘tadi.

Xoramiy kitobni tartiblashda Mahmud Zamashariyga xilof qilmagan. Balki, “al-Mufassal”ning tartibiga biron o‘zgartirish kiritmasdan, tartibi qanday bo‘lsa, o‘shandek qilib sharhlagan. Kitobning tartibiga e’tiroz ham bildirmagan. Xorazmiy o‘z sharhining boshida muqaddima keltirib, unda “al-Mufassal” ning fazlining bayon qilb, o‘zining bu kitob uchun 30 yil dars halqasi tashkil qilgani vas hu dars berish asnosida

³ Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabiyy. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 225.

⁴ Bu asarda Yoqut Hamaviy 7-13-asr boshigacha yashagan O’rta Osiyonning Buxoro, Marv, Aksikat, Samarqand, Farg’ona, Forob kabi shaharlarida chiqqan, arab tilida ijod qilgan qariyb 1100 ta olimlar haqida ma’lumotlar jamlangan. Qarang: Sudrul afozil Qosim ibn Husayn Xorazmiy. Sharhi-l-Mufassal fi Sona’tul e’rob al-mavsum bi-t-Taxmir. Abdurrahmon ibn Sulaymon tahqiqi ostida. 1-jild. – Makkai mukarrama.: Dorul g’arbi-l-islomiy, 1990.– B. 40.

uning mushkil deb bilgan joylarini ushbu kitobda sharhlashni maqsad qilganini aytib o‘tadi.

Muallif, avvalo, kitob iborasini tahlil qilish va ochib berishga ahamiyat qaratgan. Agar kitobning iborasi yengil, tushunishga oson bo‘lsa, uni shundayligicha keltirib, sharh sifati bir ikki so‘z keltirgan xolos. Sharhda kitob boshidan oxirigacha mavjud bo‘lib, Xorazmiy uning biror iborasi tushurilib qolmasligiga qattiq ahamiyat qaratadi. Iboralar tahlilidan so‘ng, Zamaxshariyning qarashlarini qo‘llab quvatlovchi, u bilan hamfikr bo‘lgan boshqa ulamolarning o‘sha masalaga oid fikrlarini keltirib o‘tadi.

Bu sharh “al-Mufassal”ning boshqa sharhlaridan quyidagi sifatlari bilan ajralib turadi:

1. Kitobning iboralarini va e’robini aniq holatda keltirgan;
2. Uning lafzlarini lug‘aviy izohlab bergan;
3. Kitobning matnini tahqiq qilib, uning eng ishonchli nusxalariga murojaat qilgan;
4. Kitobni to‘g‘ri rivoyat qilish maqsadida Mahmud Zamaxshariyning shogirdlaridan naql qilgan.

Xorazmiy sharhda jumhur nahv olimlariga xilof qilgan, o‘zining xos fikrlarini ham keltirib o‘tgan. Kitobni tahqiq qilgan olim ularning umumiyligi soni 50 tadan ko‘proq o‘rinda kelganini aytib o‘tgan.

Bu kitobning bir nusxasi Britaniya muzeyida 927-raqam ostida saqlanadi. Yana bir nusxasi damashqning “Zohiriya” kutubxonasida 67 va 126-raqamlar ostida saqlanadi.⁵

3. Ibn Hojib nomi bilan mashhur bo‘lgan Jamoliddin Abu Amr Usmon ibn Umar ibn Abu Bakr ibn Yunus (1174-1249) rohimahullohning “Al-Iyzoh fi sharhi-l-Mufassal” (Mufassalning sharhidagi izoh) kitobi.

Bu kitobning muallifi Ibn Hojib nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Amr Usmon ibn Umar ibn Abu Bakr ibn Yunus Jamoliddin Misriydir. Olim “Ibn Hojib” nomi bilan atalishiga otasining saroyda eshik og‘asi vazifasini bajarganiligi sabab bo‘lgan. U Salohiddin Ayyubiyning tog‘asining o‘g‘li Musak Salohiy sultonning eshik og‘asi bo‘lgan. U Misrning yuqorisida joylashgan Isno shahrida tug‘ulgan. Uning tug‘ilgan sanasi borasida ixtiloflar bor. Ba’zilar hij 570-yil desa, ba’zilar 571-yil deyishadi. Ba’si olimlar 590-yil tug‘ilgan degan taxminni ham oldin suradilar. Lekin birinchisi hijriy 570-yil tug‘ilgan degan taxmin qolganlariga nisbatan ustunroq.

Olim ko‘plab ilmlarni egallaydi. Jumladan: Molikiy fiqhini, tafsir va arab tili ilmlarini mukammal o‘rganadi. Yetuk olim bo‘lib yetishgach, ko‘plab tolibi ilmlarga dars beradi. Hayotining oxirgi paytlarini Misrning Iskandariya shahrida dars berish bilan o‘tkazadi. Shavvol oyining 26-kuni hijriy 646-yilda vafot etadi.

⁵ Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabi. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma’orif, 1975. – B. 225.



Olim juda ko‘p olimlardan dars olgan. Ustozlarining eng ulug‘laridan biri qiroat peshvosi Shotibiy hisoblanadi.

Juda ko‘p shogirdlar ham chiqargan. Jumladan nahv ilmida peshvolardan biri hisoblanmish Ibn Molik ham u kishidan ta’lim olgan.

Ibn Hojib bizga juda ko‘p illmiy meros qoldirgan. Ularning umumiyligi soni 20 dan ziyod bo‘lib, barchasi ulamolar tomonidan chuqur o‘rganiladi. Asarlaridan nahv va sarfga bag‘ishlanganlari hozirgacha ham ko‘plab madrasalarda, ilmiy dargohlarda darslik sifatida foydalanib kelinmoqda.

Asarlari: “Mudimatum (Kofiya) fin nahv”, “Sharh ul-Muqaddima al-kofiya, Muqaddima (ash-shofiya) fis sarf”, “Sharhu-sh-shofiya”, “Shahu-l-vofiya”, “Al-Iyzoh fi sharhi-l-Mufassal”.

Zamaxshariyning “Al-Kofiya” asari aslida “al-Mufassal” kitobining muxtasari hisoblanadi. Olim bu asarni mavzulari tartiblashda va taqsimlashda Mahmud Zamaxshariyga butkul ergashgan.

Shu o‘rinda “al-Mufassal” asarining qolgan muxtasarlariga to‘xtalib o‘tsak.

1. Avvalo, musannifning o‘zi “Al-Mufassal” boshlovchilar uchun o‘g‘ir va hajmi katta bo‘lgani sabab, ularga yengillik yaratish maqsadida kitobni qisqartirgan va “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” deb nomlagan. “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” muhim noyob manba bo‘lganligidan xalq orasida keng tarqalgan va olimlarning unga qiziqishi kuchli bo‘lgan. “Al-Unmuzaj fi-n-nahv”ga o‘z davrining yirik olimlari tomonidan ko‘plab sharhlar, hoshiyalar yozilgan. Ular ko‘plab qo‘lyozma nusxalarda ko‘chirilgan va hozirgi kunda ularning 500 ga yaqin qo‘lyozma nusxalari jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanmoqda.”⁶

2. Abdulkarim ibn Atoulloh Iskandariyning muxtasari. Kitobning nomi ma’lum emas. Uning bir nusxasi Tunis milliy kutubxonasida saqlanadi.

3. Shamsuddin Qovnaviyning “Ixtisor ul-Mufassal” asari. Uning ikkita nusxasi mavjud bo‘lib, Turkiyaning “Ayo sofiya” kutubxonasida mavjudligi aytildi. Lekin dr. Abdurrahmon ibn Sulaymon: “U yerga borib bu ikki nusxa haqida so‘rganimda, mas’ullar hozirda ular mavjud emasligini aytishdi.” - deb aytadi.⁷

Kitobning shuhrati dunyoga keng yoyilib, hatto Andalusiyagacha yetib borgan. Juda ko‘plab olimlar tamonidan o‘rganilgan.

Kitobga birinchilardan bo‘lib muallifning o‘zi sharh yozgan va uni “Havashiy al-mufassal fi sonatul e’rob” deb nomlagan. Vaqtidan kam olimlar ham “al-Mufassal”dagi ma’lumotlardan xabardor bo‘lishlari uchun “al-Unmuzaj fi-n-nahv” nomi bilan asarni

⁶ Nosirova M. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi. – T.: ToshDShI nashriyoti, 2005. – B. 4.

⁷ Sudrul afozil Qosim ibn Husayn Xorazmiy. Sharhi-l-Mufassal fi Sona’tul e’rob al-mavsum bi-t-Taxmir. Abdurrahmon ibn Sulaymon tahqiqi ostida. 1-jild. – Makkai mukarrama.: Dorul g’arbil islomiy, 1990. – B. 57.



qisqartirgan. Keyinchalik, esa u kishini shogirdlaridan: Roziyiddin Tobboxiy, Tojul aimma Haddodiy, Abu Hanifa va Ya'qub Jundiy tomonidan sharhlar bitildi. Bulardan tashqari juda ko'plab olimlar tomonidan sharhlar, hoshiyalar va manzumalar bitilganligi, Ibn Hojibdek katta olimlarning bu kitobni muxtasar qilganligi kitobning o'zidan keyingi asarlarda qanchalik ta'siri borligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Malika Nosirova. Mahmud Zamaxshariyning "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" risolasi. – T.: ToshDShU nashriyoti, 2005. – B. 188.
2. Abulbaqo Ya'ish ibn Ya'ish. Sharhu-l-Mufassal li-z-Zamaxshariy. Imil Bade' Ya'qub tahqiqi ostida. 1-jild. – Bayrut.: Doru-l-kutubu-l-ilmiyya, 2001. – B. 462.
3. Karl Brokkelman. Tarixu-l-Adabu-l-arabiy. 5-jild. – Qohira.: Dorul ma'orif, 1975. – B. 392.
4. Ibn Xallikon. Vafayatu-l-A'yon va abnau abnau-z-zamon. 7-jild. – Bayrut.: Dorus Sodir, 2003. – B. 383.
5. Sudrul afozil Qosim ibn Husayn Xorazmiy. Sharhi-l-Mufassal fi Sona'tul e'rob al-mavsum bi-t-Taxmir. Abdurrahmon ibn Sulaymon tahqiqi ostida. 1-jild. – Makkai mukarrama.: Dorul g'arbi-l-islomiy, 1990. – B. 582.